

## SAN'AT JURNALISTIKASIDA INTERVYU OLISH QOIDALARI

Allabaeva Sanobar Barlikbay kizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21038164>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada san'at jurnalistikasida intervyu olishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Intervyu jarayonining bosqichlari, suhbatga tayyorgarlik ko'rish, savollarni shakllantirish, etik me'yorlarga rioya qilish hamda san'at vakillari bilan samarali muloqot olib borish usullari yoritiladi. Shuningdek, jurnalistning kasbiy mahorati, suhbat davomida ishonchli axborot olish usullari va intervyu materialini tayyorlash tamoyillari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqola san'at jurnalistikasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, tadqiqotchilar hamda amaliyotchi jurnalistlar uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** san'at jurnalistikasi, intervyu, jurnalist, muloqot, savol, etik me'yorlar, axborot, suhbat, madaniyat, media.

San'at jurnalistikasi ommaviy axborot vositalarining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, jamiyatning madaniy hayotini yoritish, san'atkorlar faoliyatini keng jamoatchilikka tanishtirish va milliy hamda jahon madaniy merosini targ'ib qilishda muhim o'rin tutadi. Ushbu yo'nalishda intervyu janri eng samarali jurnalistik usullardan biri hisoblanadi. Intervyu orqali san'atkorning ijodiy qarashlari, shaxsiy tajribasi, yangi loyihalari hamda san'at rivojiga oid fikrlari bevosita o'zidan olinadi. Shu sababli intervyu nafaqat axborot manbai, balki tomoshabin yoki o'quvchini san'at olamiga yaqinlashtiruvchi vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. San'at jurnalistikasida intervyu olish boshqa yo'nalishlardagi suhbatlardan ayrim jihatlarini bilan farq qiladi. San'at vakillari ko'pincha hissiyotga boy, ijodiy tafakkur egasi bo'lgani sababli jurnalist ularga mos muloqot uslubini tanlay olishi lozim. Intervyu davomida faqat faktlarni yig'ish emas, balki ijodkorning ichki dunyosini, dunyoqarashini va san'atga bo'lgan munosabatini ochib berish ham muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi raqamli media sharoitida intervyuning shakli ham o'zgarib bormoqda. An'anaviy gazeta va televideniye bilan bir qatorda internet nashrlari, podkastlar, ijtimoiy tarmoqlar va videoplatformalarda ham intervyular keng tarqalmoqda. Bu esa jurnalistdan zamonaviy texnologiyalarni puxta bilishni, intervyuni turli auditoriyalar uchun mos formatda tayyorlashni talab etadi. Mazkur maqolaning maqsadi san'at jurnalistikasida intervyu olish qoidalarini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilish, samarali suhbat tashkil etish bosqichlari hamda jurnalist faoliyatida muhim hisoblangan kasbiy va axloqiy tamoyillarni yoritishdan iborat.

San'at jurnalistikasida muvaffaqiyatli intervyu tayyorlash bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, ularning har biri yakuniy natijaning sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, jurnalist suhbatdosh haqida yetarli ma'lumot to'plashi zarur. San'atkorning tarjimai holi, ijodiy faoliyati, mukofotlari, yangi asarlari, avvalgi intervyulari va jamoatchilik orasidagi obro'si puxta o'rganilishi kerak. Bunday tayyorgarlik jurnalistga takroriy savollarni bermaslik va mazmunli suhbat tashkil etish imkonini yaratadi. Ikkinchi muhim bosqich – intervyu maqsadini aniq belgilashdir. Agar suhbat yangi spektakl, film, konsert yoki ko'rgazmaga bag'ishlangan bo'lsa, savollar aynan shu mavzuga yo'naltirilishi lozim.

Agar intervyuning maqsadi san'atkorning hayot yo'li yoki ijodiy falsafasini ochib berish bo'lsa, savollar shaxsiy tajriba va kasbiy qarashlarni yoritishga xizmat qilishi kerak. Savollarni tayyorlash jarayonida ochiq savollardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, "Sizningcha, zamonaviy san'atning asosiy muammolari nimada?" kabi savollar suhbatdoshni batafsil fikr bildirishga undaydi. Aksincha, "Ha" yoki "Yo'q" javobini talab qiladigan savollar intervyuning mazmunini cheklaydi. Intervyu davomida jurnalist tinglash madaniyatiga ham amal qilishi zarur. Suhbatdoshning javobini diqqat bilan eshitish, kerak bo'lsa aniqlashtiruvchi savollar berish intervyuni yanada boyitadi. Ba'zan eng qiziqarli ma'lumotlar oldindan rejalashtirilmagan qo'shimcha savollar orqali olinadi.[1]

San'at jurnalistikasida etik me'yorlarga rioya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Jurnalist suhbatdoshning shaxsiy hayotiga hurmat bilan yondashishi, uning roziligisiz shaxsiy ma'lumotlarni e'lon qilmasligi kerak. Savollar haqoratli yoki bosim o'tkazuvchi ohangda berilmasligi, muloqot o'zaro hurmat tamoyiliga asoslanishi lozim. Intervyu o'tkaziladigan joy ham muhim omil hisoblanadi. Ijodkor o'zini erkin his qiladigan muhitda samimiyoq fikr bildiradi.

Masalan, teatr aktyori bilan teatr binosida, rassom bilan ustaxonasida yoki musiqachi bilan studiyasida o'tkazilgan suhbat tabiiy va qiziqarli chiqishi mumkin.[2] Texnik tayyorgarlik ham jurnalistning mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Audio va video yozuv qurilmalarining sozligi oldindan tekshirilishi, yozuv sifati nazorat qilinishi kerak. Texnik nosozlik sababli muhim fikrlarning yo'qolishi intervyu sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Intervyu yakunlangach, materialni tahrir qilish bosqichi boshlanadi. Tahrir jarayonida suhbat mazmuni o'zgartirilmasligi, fikrlar noto'g'ri talqin qilinishi zarur. Zarurat tug'ilganda ayrim iqtiboslarni suhbatdosh bilan aniqlashtirish professional yondashuv hisoblanadi.[3]

Bugungi kunda multimedia intervyularining ommalashuvi jurnalist oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda intervyu matni bilan bir qatorda foto, video, qisqa iqtiboslar va ijtimoiy tarmoqlar uchun mos kontent ham tayyorlanmoqda. Shu bois zamonaviy san'at jurnalisti nafaqat yaxshi suhbatdosh, balki raqamli media texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan mutaxassis bo'lishi kerak. Shuningdek, jurnalist intervyu davomida betaraflik tamoyiliga amal qilishi lozim. Shaxsiy munosabat yoki hissiyotlar suhbat mazmuniga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

Intervyuning asosiy vazifasi – auditoriyani ishonchli, xolis va dolzarb ma'lumot bilan ta'minlashdir. San'at jurnalistikasida muvaffaqiyatli intervyu nafaqat savollar sifati, balki jurnalistning madaniy saviyasi, nutq madaniyati, kuzatuvchanligi va psixologik yondashuviga ham bog'liq. Aynan shu omillar suhbatni oddiy savol-javobdan mazmunli jurnalistik asarga aylantiradi.

San'at jurnalistikasida intervyu olish yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, muloqot madaniyati va ijodiy yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir. Intervyu jurnalistga san'atkorning ijodiy faoliyati, dunyoqarashi va jamiyatdagi o'rni haqida ishonchli ma'lumot olish imkonini beradi. Shu bilan birga, u auditoriyaning madaniy saviyasini oshirish, san'atni targ'ib qilish va ijodkor bilan jamoatchilik o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatishga xizmat qiladi.

Maqolada tahlil qilinganidek, muvaffaqiyatli intervyu tayyorlash uchun puxta tayyorgarlik, mavzuni chuqur o'rganish, ochiq savollar tuzish, suhbatdoshni diqqat bilan tinglash va etik me'yorlarga qat'iy rioya qilish muhim hisoblanadi.

Zamonaviy media rivojlanishi jurnalistdan multimedia imkoniyatlaridan foydalanish, turli platformalar uchun mos kontent yaratish va axborotni tezkor hamda sifatli taqdim etishni talab qilmoqda.

Kelgusida san'at jurnalistikasida intervyu janrini rivojlantirish uchun jurnalistlarning kasbiy malakasini oshirish, media etikasi bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish hamda raqamli jurnalistika ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa san'at sohasidagi axborotlarning sifatini oshirish, milliy madaniyatni keng targ'ib qilish va jurnalistikaning ushbu yo'nalishini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Kholdorov E. Jurnalistika nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. To'xtayev N. Jurnalist etikasi va kasbiy mahorati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Umarov B. Intervyu janri: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Universitet, 2021.
4. Karimov A. Ommaviy axborot vositalari va zamonaviy jurnalistika. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022.
5. Kovach B., Rosenstiel T. The Elements of Journalism. 4th ed. New York: Crown, 2021.
6. Briggs M. Journalism Next: A Practical Guide to Digital Reporting and Publishing. 4th ed. CQ Press, 2023.